

**PROFI UNIVERSITY:ZAMONAVIY TA'LIM MASKANI**

Navoiy viloyati Profi University

Boshlang'ich ta'lim sirtqi ta'lim yo'nalishi

3-kurs talabasi Xasanova Dilfuza.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishida sifatli ta'lim muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim sohasida yuksalish jarayoni davom etayotgan bir paytda, Profi University ilg'or ta'lim muassasalaridan biri sifatida ajralib turadi. Ushbu universitet ta'lim tizimining xalqaro standartlariga mos holda tashkil etilgan bo'lib, talabalarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berish, ularni bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutaxassislariga aylantirishni maqsad qilgan.

Universitet tuzilishi va yo'nalishlari.

Profi University keng qamrovli ta'lim dasturlariga ega bo'lib, hozirda quyidagi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlaydi.

1. Rus tili va adabiyoti
2. Ingliz tili va adabiyoti
3. Maktab menejmenti
4. Pedagogika va psixologiya
5. Maktabgacha ta'lim
6. Boshlang'ich ta'lim
7. Iqtisodiyot
8. Buxgalteriya hisobi va auditi
9. Bank ishi va auditi
10. Turizm
11. Axborot tizimlari va texnologiyalari
12. O'zbek tili va adabiyoti
13. Marketing

Universitet kunguzgi, kechki va sirtqi masofaviy ta'lim shakllarini taklif etadi. Bu esa turli yoshdagi va turli sharoitdagi talabalarga sifatli ta'lim olish



imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda Universitetning Toshkent va Navoiy shaharlarida filiallari faoliyat yuritib, ta'lim jarayonini yanada qulay va ommabop qilishga xizmat qiladi. Har bir filial zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan va o'quvchilarga innovatsion ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Ta'lim sifati va professor-o'qituvchilar tarkibi.

Universitetning asosiy ustunliklaridan biri – malakali professor – o'qituvchilar tarkibi. Ular orasida ilmiy darajaga ega pedagoglar, tajribali mutaxassislar va xalqaro darajadagi mutaxassislar mavjud. O'quv jarayonlarida zamonaviy ta'lim uslublari, jumladan, amaliy mashg'ulotlar, loyihaviy ishlar, onlayn ta'lim platformalari va interaktiv darslar keng qo'llaniladi.

Bundan tashqari, talabalar bilimini oshirish maqsadida seminarlar, treninglar va master – klasslar tashkil etilib, ularning amaliy tarjiba orttirishiga imkon beriladi.

Universitetda talabalar hayoti.

Profi University nafaqat ta'lim maskani, balki talabalar uchun ijodiy va intellektual rivojlanish maydonidir. Universitetda intellektual o'yinlar, sheriylar, kechalar, insholar va hikoyalar tanlovlari muntazam o'tkazilib, talabalarning iste'dodini yuzaga chiqarishga sharoit yaratadi.

Shuningdek, talabar uchun zamonaviy oshxona, sport majmualari va kutubxona xizmat qiladi. Talabalarning ijtimoiy faolligi oshishi uchun turli klub va to'garaklar faoliyat yuritadi. Bu esa talabalarning ilmiy, madaniy va sport yo'nalishlarida rivojlanishiga katta turtki bo'ladi.

Xulosa

Profi University zamonaviy ta'limning yorqin namunalaridan biri bo'lib, talabalarga sifatli bilim, amaliy ko'nikma va keng imkoniyatlar taqdim etadi. Universitet talabalari ish bozorida raqobatdosh mutaxassislar sifatida yetishib chiqishmoqda.

Kelajakda Universitet yanada rivojlanib, xalqaro miqyosdagi ta'lim muassasalari qatoriga qo'shilishi kutilmoqda. Bu esa O'zbekiston ta'lim tizimi rivojiga salmoqli hissa qo'shishi shubhasizdir.



Shuningdek, ushbu dargohning rivojlanishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda katta mehnat qilgan PROFI UNIVERSITY asoschisi BEKTOSH HATAMOVga va uning jamoasiga kelgusidagi ishlarida ulkan zafarlar tilaymiz. Ularning sa'y – harakatlari natijasida minglab yoshlar yuksak maqsadlar sari yo'l olishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.